O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
_______________
2021 yil “28” 08

# ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70310802–Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati |

**Toshkent-2021**

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | Kreditlar |
|---|---|---|---|
| ITM104 | 2021-2022 | 1 | 4 |
| **Fan/modul turi** Majburiy | **Ta’lim tili** O‘zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari** 4 |

| № | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Ilmiy tadqiqot metodologiyasi** | 60 | 60 | 120 |

2\. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda ilmiy tadqiqot dasturini tuzish va unda nazariya va amaliyot birligiga rioya qilish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda ilmiy izlanish, ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish, ilmiy tadqiqot jarayonida olim mas'uliyatining ahamiyatini o‘rgatish, ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to‘g‘ri qo‘yish va uning yechimini topish yo‘llarini izlash texnologiyasidan foydalnishni o‘rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa**

Fan tushunchasining keng va tor ma’nolari. Fanning obrazi. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Fan taraqqiyotiga ijtimoiy voqelikning ta’siri. Fan dunyoqarash shakli. Falsafa va fanning mutanosibligi, umumiyligi va farqi. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida bilim, faoliyat va ijtimoiy institut. Fan tarixiga oid yondashuvlar. Fanning funksiyalari. Fanni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar. Ijtimoiy-madaniy xodisa sifatidagi fanni tushuntirishning mushkulligi. Fanning intersubyektiv xarakteri.

**2-mavzu. Fan bilishning maxsus shakli.**

Ijtimoiy, texnikaviy, tabiiy, fundamental, amaliy, nazariy va eksperimental fanlarning o‘zaro aloqasi va farqi. Fan borliqni qonuniyat sifatida qamrab olinuvchi qonuniy jarayon. Dinamik va statik qonuniyatlar. Obyektivlik ilmiy bilim ideali va uning asosiy mezoni. Obyektivlik tushunchasining har xil talqinlari. Bilish me’yorlari va ideallari, dunyoning ilmiy manzarasi. Ilmiy bilimga nisbatan analitik va sintetik yondashuv. Fandagi izchillik, ishonchlilik, asoslilik, isbotlilik. Sababiyat va qonuniylik. Fanlarning tasnifi.

**3-mavzu. Ijod va ilmiy tadqiqot bilish faoliyatiniig mahsuli.**

Bilish va ijod uyg‘unligi. Bilish faoliyatida ijod va mehnat uyg‘unligi. Individual ijodiy faoliyat. Yangi bilimlarning eski bilimlar bilan bog‘liqligi. Ijod yangi qadriyatlarni yaratish omili. Daholikning o‘ziga xos xususiyatlari. Ijodning dual xarakteri. Kashfiyot va ixtirolar ijodiy faoliyat natijasi sifatida. Insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyotlar va ixtirolar. Ilmiy-ijodiy faoliyatda olimning shaxsiy fazilatlari.

**4-mavzu. Ilmiy-tadqiqotda novasiya va innovasiyalarning o‘rni.**

Ilmiy tadqiqotning boshqa ijod shakllari bilan aloqadorligi. Ilmiy tadqiqotning xossalari. Texnikaviy tadqiqot. Texnikaviy ijodning ratsional va utilitar xususiyati. Ilmiy-ijodiy faoliyatni anglashga nisbatan yangi yondashuvlar.

**5-mavzu. Ilmiy tadqiqotning metodolik tamoyillari va yondashuvlari.**

Metod, metologiya va metodika tushunchalari. Umumilmiy tadqiqot metodlari. Xususiy ilmiy metodlari. Umumiy mantiqiy metodlar. Fan metodlari. Fanlararo tadqiqot metodlari. Empirik tadqiqot metodlari. Nazariy bilish metodlari. Ilmiy tadqiqotning tiplari. Innovasion tadqiqotlar. Fan va ishlab chiqarish birligi.

**6-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlariga axborot va axborot texnologiyalarining ta’siri.**

Axborot, ma’lumot va bilim uyg‘unligi. Ilmiy bilimlar hajmining o‘sishi. Ilmiy bilimning informativligi. Fanning integratsiyalashuvi. Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari. Fanlar tutashgan joyda ilmiy bilimning integral sohasi. Informatika ilmiy bilimning o‘ziga xos sohasi.

**7-mavzu. Olimning ijtimoiy mas’uliyati.**

Fan olimlar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat turi sifatida. Ichki va tashqi determinasiya. Erkinlik va ijtimoiy nazorat. Neytralizm va ijtimoiy mas’uliyat. Hozirgi zamon olimining portreti. Intellektual va superintellektual elita. Ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi va zarurati.

**III. Amaliy mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Asosiy metodologik tamoyillar.
2. Ilmiy tadqiqotning metodologik yondashuvlari.
3. Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyat.
4. Ilmiy tadqiqotda dalillarning roli.
5. Ilmiy tadqiqot metodlariga axborot va axborot texnologiyalarining ta’siri.
6. Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati.

| | |
|---|---|
| | 7. Ilmiy tadqiqotda intuitsiyaning roli.<br>8. Olimning ijtimoiy mas'uliyati.<br>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Intensional va teleologik tushuntirishning ahamiyati.<br>2. Hozirgi olimlar fan rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida.<br>3. Ilmiy tadqiqotning tiplari.<br>4. Fanning differensiatsiyasi va integratsiyasi.<br>5. Ilmiy bilimda mavjud qoidalar va xulosalarning oqilonaligi.<br>6. Ijod va ijodiy faoliyat uyg'unligi.<br>7. Ijodiy faoliyatning turlari.<br>8. Muammoni qo'yish ilmiy tadqiqotning bosh omili.<br>9. Metodlarning tasnifi.<br>10. Axborot – obyektiv reallikning muhim qismi sifatida.<br>11. Informatsion vaziyat.<br>12. Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish turlari va darajalari.<br>13. Nazariy tadqiqot metodlari.<br>14. Empirik tadqiqot metodlari.<br>15. Umummantiqiy tadqiqot metodlari<br>16. Intuitiv bilish darajasi.<br>17. Elita va intellektual elita nazariyasi.<br>18. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta'minlash shakllari.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| **3.** | **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari**<br>Talaba bilishi kerak:<br>• ilmiy tadqiqot olib borishning metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot olib borishning zaruriy shartlari, ilmiy izlanishga xos asosiy tushunchalar, mavzuni tanlash bosqichlari, tadqiqot rejasini tuzish, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish, tadqiqot strukturasi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***; |

| | |
|---|---|
| | • tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, ilmiy loyihalar tuzish haqidagi bilim ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>• talaba bilimning konstruktiv xarakteri, ilmiy faoliyat mahsulining amaliy ahamiyatini anglash, ilmiy-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish usul va talablarini bilish, ilmiy ishni ilmiy uslubda ravon va savodli yozish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Шермуҳамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 464 б.<br>2. Алемасов В. Илмий тадкикот: методология, методика, ижодиёт. Ўкув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси,, 2015. – 102 б.<br>3. Рахматов А.Д., Юнусов Р.Ф. Илмий тадқиқот асослари. – Т.: ТИМИ, 2008. – 210 б.<br>4. Жўраев С.А. Илмий тадқиқот методологияси. Ўкув қўлланма. – Т.: ЖИДУ, 2014. – 405 б.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2017.- 104 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini |



| | |
|---|---|
| | birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.<br>**Axborot manbalari**<br>5. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>6. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. |
| **7.** | O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" 08 dagi "1" – sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br><br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>D.I. Madaminova - TDSHU, Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar nomzodi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>M.M. Muhammadsidiqov – O'zXIA dotsenti, siyosiy fanlar doktori (turdosh OTM).<br>Nayimov O.M. – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dekani, s.f.n. (turdosh OTM). |